

Rashidova Baxti Yaxyaevna
“Ijtimoiy fanlar” kafedrasi dotsent v.b.
Jizzax politexnika instituti

**YOSHLAR KAMOLOTI, MANFAATI, BAXTU SAODATI – YANGI
O‘ZBEKISTON KELAJAGINING ULUG‘VOR MAQSADI**

Annotatsiya: Ushbu maqolada yoshlar kamoloti, manfaati, baxtu saodati – Yangi O‘zbekiston kelajagining ulug‘vor maqsadi ekanligi, bu borada yurtimizda amalga oshirilayotgan ishlar, islohotlar va ularning amaliy natijalari haqida so‘z yuritiladi. Yosh avlodni har jihatdan komil qilib tarbiyalash, ularning zamonaviy ilm sirlarini o‘rganishlari uchun barcha sharoitlarni yaratib berish davlat siyosatining ustuvor sohasiga aylandi.

Kalit so‘zlar: yoshlar, yoshlar tarbiyasi, globallashuv, tahdid, malakali kadr, ta’lim, tarbiya, oltin fond, ilm, kreativ iqtisodiyot, islohot, jamg‘arma.

Rashidova Bakhti Yakhyayevna
Teacher at the Department of «Social Sciences»
Jizzakh Polytechnic Institute

**DEVELOPMENT, BENEFIT, HAPPINESS OF THE YOUTH IS THE
GLORIOUS GOAL OF THE FUTURE OF THE NEW UZBEKISTAN**

Annotation: This article talks about the development, benefit, happiness and happiness of young people - the grand goal of the future of New Uzbekistan, about the works, reforms and their practical results implemented in our country in this regard. Educating the young generation to be perfect in all aspects, creating all the conditions for them to learn the secrets of modern science has become a priority area of state policy.

Key words: youth, youth education, globalization, threat, qualified staff, education, training, gold fund, science, creative economy, reform, fund.

Yoshlar kamoloti, manfaati, yorug' iqboli, baxtu saodati – Yangi O'zbekiston kelajagini barpo etishdek ulug'vor maqsadimizning mazmun-mohiyatini tashkil etadi. Chunki davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, yoshlar O'zbekistonning eng katta boyligi, bebaho xazinasidir. Har bir davrning o'ta dolzarb masalalari qatorida yoshlar tarbiyasi ham diqqat markazida turgan. Davlat taraqqiyotida malakali kadr, yuksak zakovatli mutaxassislarning o'rni beqiyos hisoblanadi. Shu boisdan ham, istiqlolimizning dastlabki kunlaridanoq, ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, barkamol avlodni munosib tarbiyalash ustuvor vazifalardan biri etib belgilandi. Ma'lumki, joriy yilning 14 fevral kuni Prezidentimiz SHavkat Mirziyoev yoshlar bilan muloqot o'tkazdilar. Uchrashuvda yoshlar uchun imkoniyatlarni yanada kengaytirish chora-tadbirlari muhokama etildi. Davlatimiz rahbari so'zining boshida bu uchrashuvdan mamnun ekanini ta'kidlab, yoshlarni xalqimizning oltin fondi¹- deb atadi.

Barchamizga ma'lumki, O'zbekiston aholisining 60 foizini yoshlar tashkil etadi. Har yili mehnat bozoriga 600 mingdan ortiq yigit-qizlar kirib kelmoqda. 2030 yilga borib, bu ko'rsatkich 1 million nafarga etadi.

Yosh avlodni har jihatdan komil qilib tarbiyalash, ularning zamonaviy ilm sirlarini o'rganishlari uchun barcha sharoitlarni yaratib berish davlat siyosatining ustuvor sohasiga aylandi. Ilgari oliy ta'limda bitta o'rin uchun kamida 10 nafar bola kurash olib borar edi. Qisqa davrda oliygohlar soni 3 barobar oshirilgani natijasida endi 42 foiz yoshlar qamrab olinmoqda. Xotin-qizlarga shartnoma to'lovi davlat tomonidan qoplab berilayotgani hisobiga, ularning soni 11 karra ko'paydi. Kambag'allikdan chiqishning eng samarali echimi ham – bu ta'lim. Shu bois bunday oilalar farzandi foizsiz ta'lim krediti, qo'shimcha grant, shartnoma to'loviga yordam orqali o'qishga rag'batlantiriladi. Bilimga chanqoq, lekin oilaviy sharoiti og'ir bo'lgan yoshlarni xorijda o'qitish bo'yicha yangi tizim – “Yorqin kelajak” loyihasi joriy etiladi².

¹ <https://president.uz/uz/lists/view/7872>

² <https://president.uz/uz/lists/view/7872>

Mamlakatimizda barkamol avlodni tarbiyalash masalalari keng jamoatchilik va butun xalqning ishtirokini hamda qo'llab-quvvatlashini talab qiladigan umummilliy vazifa ekanligi qayd etilmoqda. Darhaqiqat, ta'lim muassasalarida farzandlarimizning o'qishi va o'z iqtidorlarini har tomonlama rivojlantirishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Yosh avlodda milliy ruhiyatni shakllantirish, g'oyaviy xurujlar va zararli axborotlardan asrash masalalari, tarbiyasi og'ir bolalarga alohida mehr-e'tibor ko'rsatish, hayotda o'rnini topishiga ko'maklashish kabi masalalar kun tartibidagi masalalar sifatida hal qilinmoqda.

Vatanparvarlik hissini kuchaytirish maqsadida 10-11-sinf o'quvchilari o'rtasida "Vatan tayanchi" harakati boshlandi. Unga 300 mingdan ziyod yoshlar qamrab olindi. Zero, mustaqillik aynan fidoyi, o'z Vatani manfaatlariga g'oyat sadoqatli, yukori malakali kadrlarning jamiyatni boshkarishini takozo etadi.

Prezidentimizning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqida alohida ta'kidlangani kabi, "Bugungi kunda O'zbekiston jadal rivojlanmoqda. Biz ajdodlarimizning donishmandlik an'analarga amal qilib, teran anglagan holda, qat'iy islohotlarni amalga oshirmoqdamiz, mamlakatimizning yangi qiyofasini shakllantirish yo'lidan bormoqdamiz. Jamiyatimizda siyosiy faollik ortib bormoqda, barcha sohalarda chuqur islohotlar amalga oshirilmoqda. Ulardan ko'zlangan maqsad - "Inson manfaatlari hamma narsadan ustun" degan oddiy va aniq-ravshan tamoyilni amalga oshirish ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan demokratik davlat va adolatli jamiyat barpo etishdan iborat".

Prezidentimizning yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan 3 ta muhim hujjat imzolagani yuqoridagi fikrlarning mantiqiy davomi desak mubolag'a bo'lmasa kerak.

Birinchi hujjatga ko'ra, Yoshlar agentligi huzurida jamg'arma tuzilib, unga 100 million dollar mablag' ajratildi. Endi tadbirkor yoshlarga 2,5 milliard

soʻmgacha imtiyozli kreditlar beriladi, startap loyihalariga 2 milliard soʻmgacha investitsiya kiritiladi.

Ikkinchi qaror bilan, oliy oʻquv yurti bitiruvchilarining bandligini taʼminlash boʻyicha yangi tizim yoʻlga qoʻyiladi. Buning uchun Milliy bankka 100 million dollar yoʻnaltirilib, ularning tashabbus va gʻoyalarini loyihaga aylantirish boʻyicha bank xizmatlari joriy etiladi.

SHuningdek, bitiruvchilarni ish bilan taʼminlash boʻyicha hokimlar, bank va korxona rahbarlaridan iborat komissiya tuziladi.

Uchinchi hujjatga koʻra, Aloqabank yoshlarning biznes loyihalarini qoʻllab-quvvatlovchi tayanch bankka aylantirilib, unga 200 million dollar beriladi. Aloqabank oʻzini oʻzi band qilgan yoshlarning loyihalari uchun 100 million soʻmgacha 7 yil muddatga imtiyozli mikroqarz ajratadi.

SHuningdek, yakka tartibdagi tadbirkor boʻlgan, kamida 20 nafar yoshni ishga olib, kichik korxona ochgan va oʻquv markazi tashkil qilgan yosh tadbirkorlarga 7 yil muddatga 5 milliard soʻmgacha imtiyozli kredit beriladi. Bank kreditlarining kamida 30 foizi xotin-qizlar tadbirkorligi uchun yoʻnaltiriladi.

Maʼlumki, kreativ iqtisodiyot sohalarida faoliyat koʻrsatayotganlarning 98 foizi yoshlar boʻlib, oʻtgan yili bu boʻyicha qonun qabul qilinib, huquqiy asoslari belgilangan edi. Endi esa hududlarda ham kreativ industriya parklari barpo etiladi. Ularning rezidentlariga 2030 yil yakunigacha imtiyozli soliq rejimi qoʻllanadi. Bu borada biznes maktablari tashkil qilinib, biznes yuritish hamda elektron tijorat kabi xizmat koʻrsatishning innovatsion usullari oʻrgatiladi.

Energetika, transport, urbanizatsiya, zamonaviy arxitektura, tibbiyot yoʻnalishlarida “El-yurt umidi” jamgʻarmasi kvotalari koʻpaytiriladi. Harbiy bilim yurtlarining namunali tinglovchilari uchun “Oliy bosh qoʻmondon” davlat stipendiyasi joriy etiladi.

Kelgusi o'quv yilidan boshlab o'quvchilar o'rtasida muhandislik olimpiadalari va tanlovlar o'tkazish yo'lga qo'yiladi. G'olib bo'lgan bitiruvchi yoshlar texnika oliygohlariga grant asosida o'qishga kiradi.

Endi bu harakat kasb-hunar maktabi, texnikum va xususiy ta'lim tashkilotlarida ham yo'lga qo'yilib, 1 million o'quvchi qamrab olinadi. Ular o'rtasida turli tanlov va musobaqalar tashkil etiladi. SHuningdek, mahallalarda "SHijoat va g'ayrat" sport o'yinlari o'tkaziladi. G'olib mahallalarga sport inshooti qurilib, anjomlar bilan ta'minlanadi. "Vatan tayanchi" hamda "Shijoat va g'ayrat" musobaqalari g'oliblariga harbiy bilim yurtlariga kirish uchun tavsiya beriladi.

Xulosa qilib aytish mumkin-ki, yoshlarning ta'lim olishi, kasb-hunar egallashi, etuk insonlar bo'lib ulg'ayishi yo'lida zamonaviy, ilg'or-innovatsion shart-sharoitlarni yaratib berish uchun O'zbekiston bor kuch va imkoniyatlarini ishga solmoqda. CHunki yosh avlodni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ma'naviy etuk, jismonan sog'lom, vatanparvar va fidoyi etib tarbiyalash, huquq hamda manfaatlarini himoya qilishga e'tibor qancha kuchaytirilsa, uning samarasi ham shuncha yuqori bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Xalqchil islohotlar xalqimiz manfaatlariga xizmat qiladi. 7-jild. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2023.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. -Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. .
3. Рашидова, Б. Я. (2024). ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ ҚАНЧА МУКАММАЛ БЎЛСА, ХАЛҚ ШУНЧА БАХТЛИ ЯШАЙДИ. Educational Research in Universal Sciences, 3(1), 464-469.
4. Рашидова, Б. (2022). ЮКСАК МАЪНАВИЯТ АВВАЛО ИНСОН ОДОБИДА НАМОЁН БЎЛАДИ. ТА'ЛИМ ВА RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(12), 351-355.

5. Yaxyaevna, R. B., & Nurbek, A. (2023). MA'NAVIYAT JAMIYAT HAYOTINING JONI VA RUHI. In " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (Vol. 1, pp. 503-506).
6. Rashidova, B. Y. (2023). YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHDA MAHALLANING TUTGAN O'RNI.